Holati: Ijobiy
Direktor: Xikmatov Sadretdin Muitdinovich
Sana: 30-09-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

259967 - SONLI

Obyekt nomi: 5-qavatli turar-joy binosini qurish.	
Buyurtmachi:	“ARAB QOVCHIN IQBOLI” MCHJ
Bosh loyihachi:	"ELEGANT EKSPRESS PROEKT" mas’uliyati cheklangan jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Aniqlanmagan
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	093290

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Buyurtmachi tomonidan loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash uchun buyurtma xati.

1.2. Qarshi shahar davlat xizmatlari markazining 2025-yil №209348452-sonli xati.

1.3. Qarshi shahar qurilish bo’limining 12.08.2025-yildagi №208373192-sonli ruxsatnomasi.

1.4. Qashqadaryo viloyat qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 15.08.2025- yil №1710-1710401-236310-sonli arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasi.

1.5. Buyurtmachi va loyihachi tomonidan tuzilgan loyihalashtirish topshiriqnomasi.

1.6. Tabiatni muhofaza qilish qumitasining 31.08.2025-yil №01-02/05-4029-sonli xulosasi.

1.7. Elektr ta’minoti bo’yicha “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Qashqadaryo hududiy f-li”ning 15.08.2025-yil №1040190577-sonli texnik sharti, ichimlik suvi va oqova suv ta’minoti “Qashqadaryo suv ta’minoti” AJning 26.09.2025-yil №10-DX-162-sonli texnik sharti, “Hududgazta’minot” AJning 11.08.2025-yil №208681855-sonli rad etilganligi to’g’risidagi habarnoma hamda mavjud amaldagi normativ xujjatlar asosida.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Tushuntirish xati, ART (Arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasi) - Kitob.

2.2. Loyiha tarkibiy bayoniga ko’ra “Ishchi loyihaning” elektron yo’nalishda taqdim etilgan loyiha-smeta xujjatlari.

2.3. “O’ZGASHKLITI” MCHJ Qashqadaryo viloyat filiali tomonidan berilgan muhandislik-geologik sharoitlar to’g’risidagi dastlabki texnik xulosa – Kitob.

2.4. Loyiha tashkiloti tomonidan tayyorlangan teplotexnik hisoblash va energetik pasporti.

2.5. Ob’ektning joriy narxlardagi hisoblangan qiymati, mahalliy resurslar varaqasi, materiallar sarfi – Kitob.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	**Nomi**	**Qavati**	**Qurilish maydoni**	**Umumiy maydoni**	**Xajmi**	**Xonadonlar soni**
Ko'p xonadonli turar joy binosi	5-QAVATLI TURAR-JOY BINOSINI QURISH.	5	1478.0	8200.0	26231.4	90
Jami:			**1478**	**8200**	**26231.4**	**90**

Qurilish iqlim zonasi – IV, tashqi xavoning xarorati +36 gr.C, -17 gr.C.
Normativ qor qoplama vazni - 50 kgs/m2
Normativ shamolning bosimi - 38 kgs/m2
Seysmik tuman - 7 ball.

Qurilish manzili: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahar, “Gulshan” MFY, “Nasaf” ko’chasi 298-uy hududidan.

Fundament asosida xizmat qiladigan tuproq IGE-1 va IGE-2. IGE-1 tuproq lessovidli supes va suglinokdan iborat, joylashuvi yer osti suvlaridan balandda, yuqori govaksimon, oquvchanligi qattiq xolatdan plastik konsistentsiya xolatigacha. Ko’zatiladigan maydonda IGE-1 tuproq chuquvchi tuproq tarkibiga kiradi. Tuproqning chuquvchilik tarkibi – birinchi. IGE-2 tuproq lessovidli suglinok va supes qatlami bilan tuproq qatlami chukmaydigan tuproq. Yer osti suvlaridan yuqorida joylashgan, ko’zatuv davomida yer osti suvlari yer satxidan 8,3-11,2 m pastda joylashgan. IGE-2 tuproq elementi qalinligi – 2,0 m-dan 4,3 m-gacha. Tuproqlarning betonga nisbatan tasiri “agressiv emas”.

- Fizik mexanik ko’rsatkichlari: IGE-1, γ=1,68 tn/m3, β=26 gr., S=7,7 kPa;
IGE-2, γ=1,90 tn/m3, β=25 gr., S=7,4 kPa.
- Seysmik hududlarda tuproqning kategoriyasi – III (uchinchi).
- Seysmik maydoni – 8 balli.

Talab etiladigan muhandislik tadbirlar:

- KMK 2.01.03-19 talabiga muvofiq zilzilabardoshlikka va korroziyaga qarshi tadbirlar bajarilishi talab etiladi hamda SHNQ 2.02.01-98 bo’yicha 1-tip tuproq uchun chukmaslikka qarshi talablarni bajarish talab etiladi.
- Qurilish ishlari boshlanishidan oldin “O’ZGASHKLITI” Qashqadaryo filiali mutaxassisi tomonidan qazilgan kotlovan (transheya) tuproq tarkibi tekshirib qurilsin va muhandis geologning xulosasi olinsin.

Asosiy loyiha yechimlari.

3.1. Arxitektura va rejalashtirish yechimlari.

Qarshi shahar, “Gulshan” MFY, “Nasaf” ko’chasi 298-uy hududida loyihalanayotgan 5-qavatli turar-joy binosini loyiha xujjati buyurtmachining xati, loyihalashtirish topshiriqnomasi va arxitektura–rejalashtirish topshiriqnomasi asosida bajarildi.

Arxitektura-rejalashtirish topshiriqnomasiga asosan loyihalashtiriladigan bino 5-qavatdan iborat bo’lib, yerto’lali, turtta kirish qismiga ega va geometrik o’lchamlari bo’yicha 38,4x18,4 m-dan ikkita blok bo’lib binoning umumiy uzunligi - 77,4 m tashkil etadi. Maskur blok turtta kirish qismiga ega. Binoda bir qavatda 8-ta bir xonali, 8-ta ikki xonali va 4-ta uch xonali xonadonlar joylashgan. Yerto’la qismida texnik xonalar ko’zda tutilgan.

Loyihalanadigan binoning barcha qavatlari yashash uchun muljallangan. Xonadon xonalar balandligi pol satxidan shiftgacha - 2,7 m, yerto’la qavati – 3,0 m. Qavatlarga chiqib tushish

ichki zina orqali amalga oshiriladi.

Loyihada atrofni obodonlashtirilgan va kukalamzorlashtirish loyihasi ishlab chiqilgan. Yengil avtomashinalar uchun avtoturargoh, bolalar uynash maydonchalari, kir yelish maydonchasi, dam olish ayvonchalari va boshqa mayda arxitektura xajmlari joylashtiriladi.

Yo'laklar va maydon qoplamasi asfaltbeton hamda beton plitkalar (bruschatka) qoplamasi bilan qoplangan.

Xonalarni ichki pardozlash:

- devorlar – suvoq, yorqin rangdagi suv emulsiyasi bilan bo'yalgan;
- shift – monolit va temir-beton plita, yelimli suvoq bilan tekkislangan, yorqin rangdagi suvli emulsiya bo'yog'i bilan bo'yalgan;
- pollar – katta o'lchamdagi keramik plitka va laminat bilan qoplangan;
- deraza va eshiklar – yorqin rangdagi PVX profilli romlar, MDF eshiklar.

Tashqi pardozlash:

- poypesh – keramogranit va marmar plitalar bilan qoplangan;
- devorlar – suvoq, fasad bo'yoq bilan bo'yash, karnizlar, parapet dekorativ panellar bilan qoplangan.

3.2. Nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini ta'minlash uchun ishchi loyihasi.

Qarshi shahar, "Gulshan" MFY, "Nasaf" ko'chasi 298-uy hududida loyihalangan 5-qavatli turar-joy binosining avtoturargohlardagi avtomobil o'rinlarining umumiy sonidan 2,5–3 foizi nogironligi bo'lgan shaxslarning avtomobillari uchun ajratilgan. Bino va inshootlarning kirish qismida o'rindiqli aravachalardagi nogironligi bo'lgan shaxslarning kirishi va ularni evakuatsiya qilinishi uchun panduslar bilan jihozlangan. Hassa yoki oyoq sirpanib ketishini oldini olish uchun pandus marshlarining chetlarida, shuningdek 0,45 m-dan ortiq balandlik qiyaligida va gorizontal yuzaning chetlarida 15–20 sm balandlikdagi bortlar nazarda tutilgan. Eshiklar, zinalar va panduslarga chiqish joylari oldidan 0,6 m masofada ogohlantiruvchi taktil qoplamalar bilan qoplangan va maxsus ranglar bilan ajratib ko'rsatilgan, nogironligi bo'lgan shaxslar loyihalashtirish topshiriqnomasi asosida pastki qavatda joylashtirilgan, birinchi qavatga chiqish uchun maxsus ko'targichlar o'rnatish ko'zda tutilgan, ko'rishda va eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar talablari hisobga olinib, ma'lumot signalizatsiyalarining turli (tovushli yoki chiroqli) moslamalar o'rnatilgan. Ishchi loyiha "Qurilish ob'ektlarini nogironligi bo'lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish" SHNQ 2.07.02-24 talablariga to'liq javob beradi.

3.3.Zilzilabardoshlik yechimi.

Konstruktiv yechimlari – rigellari ortogonal yo'nalishda bo'lgan qattiqlik diafragmasiga ega ko'p qavatli ramali karkas, kompleks konstruksiyadan iborat. Binoning tashqi devorlari 380 mm qalinlikdagi utda pishirilgan g'isht bo'lib, ichki tarafdan yaxshilangan suvoq va pardoz sifatida suv asosli bo'yoq, tashqi tarafdan xam turli suvoq, mineral paxta plitali issiqlik izolyatsiya materiali va fasad bo'yoq materiallaridan foydalaniladi. Bino o'lchamlari 77,4x18,4 m, ikkita blokdan tashkil topgan. Binoda yerto'la mavjud birinchi qavat pol satxidan - 3,30 m chuqurlikda joylashgan. Binoni loyihalashda qo'yidagi qurilish materiallari va konstruksiyalaridan foydalanilgan.

- Bino poydevori - monolit temir-beton plita qalinligi 500 mm, monolit beton, beton sinfi V12,5;
- yerto'la devori va yuqori qavat devorlar – gazoblok va pishiq g'ishtdan;
- yer usti, ustunlar, ustunlar mustaxkamligini oshirish uchun sinch, temir tasmalar - beton sinfi V15, V20 bo'lgan monolitli temir-beton;
- sarbasta, temir-betonli uzak va rama – quyma temir-betonli sinfi V15, V20;

- oraliq tom yopma – yig’ma temir-beton plita, 1-qavat ruberoid (paroizolyatsiya), issiq-sovuqdan saqlovchi material minplita PPJ-100, 100 mm qalinlikdagi qoplama, ust qismi tsementli suvoq;
- zina – quyma temir-beton, beton sinfi V20;
- tomi – chordoqli, tom qoplamasi profnastil tunuka va yog’och reykali hamda stropila;
- pollari – keramik plitka va laminat qoplama;
- deraza va eshiklar – alyumin profilli, PVX va MDFdan yasalgan;
- otmostkasi – betonli, eni 1,50 m.

Barcha temir profildan yasalgan ustun, tasmalar, konstruksiyalar korroziyadan (zanglashdan) saqlash maqsadida moyli bo’yoq bilan ikki marotaba bo’yaladi. Barcha yog’ochli materiallar, konstruksiyalar yong’inga qarshi ximoya moddalari bilan ishlanadi va qoplanadi.

3.4. Binoning energiya samaradorligini oshirish uchun qo’yidagi tadbirlar amalga oshiriladi.

- Devorlar – issiqlik saqlovchi PPJ 120-160 qalinligi 50 mm minvata plita o’rnatish;
- tom qismi (issiqlikni saqlash) – bir qavat ruberoid, qalinligi 100 mm-li minplita va tsementli korishmali qoplama;
- eshik va derazalar – ikki qavatli oyna o’rnatilib, alyumin profilli, PVX, MDFdan eshik va deraza romlari o’rnatish;
- pollar – issiqlikni saqlash uchun qalinligi 30 mm-li penopolistirol o’rnatish;
- binoni yoritishda elektr tejash uchun “LED” lampalari va “LED” yoritgichlar o’rnatish.

3.5. Bosh reja (Genplan).

Loyihalanadigan bino inshoat Qarshi shahar, “Gulshan” MFY, “Nasaf” ko’chasi 298-uy h ududida joylashgan. Loyihada 5-qavatli turar-joy binosini qurish ko’zda tutilgan. Bundan tashqari hududda yer usti avtoturargohlar, bolalar maydonchasi, TP, chiqindilarni saqlash maydonchasi, aloqa tarmoqlari uchun quduq, yong’inga qarshi gidrant, yer osti ichimlik suvi saqlash uchun 200 m3-li rezervuar, dam olish uchun ayvonchalar (besedka) joylashtirish rejalashtirilgan. Loyihaviy turar-joy hududining umumiy maydoni 0,4564 ga.

Hududni obodonlashtirish va kukalamzorlashtirish loyihasi SHNQ asosida bajarilgan loyiha asosida bajariladi.

Bosh reja ko’rsatkichlari:

Umumiy maydon - 0,4564 ga
Qurilish maydoni - 0,1478 ga
Qoplama maydoni - 0,1121 ga
Kukalamzor maydoni - 0,1965 ga.

3.6. Yong’inga qarshi tadbirlar.

Binoning yong’in xavfsizlik toifasi II. Loyihada evakuatsiya uchun yetarli darajada yo’llar, yong’in va portlash xavfsizligini ta’minlash uchun tadbirlar ko’zda tutilgan. Tashqi yong’inni uchirish yong’inga qarshi rezervuardan hamda xabarlash tizimi orqali amalga oshiriladi (loyiha taqdim etilgan).

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:

Turar-joy binosi

Qurilish xajmi jami - 26231,4 m3
Umumiy maydoni - 8200,0 m2
shundan: yerto’la maydoni - 1368,0 m2

Qurilish maydoni - 1478,0 m2
Quvvati - 90-ta xonadon

Ob’ektning QQS bilan, buyurtmachining xarajatlarisiz
joriy narxlardagi smeta qiymati - 33 841 607,583 ming.so’m.
Qurilish ishchilarning mehnat vaqti - 208 375,489 odam/soat.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Muhandislik uskunalar.

Isitish va shamollatish bo’limi: Isitish va shamollatish tizimi loyihasi tashqi xavo xarorati -14 gr.C parametrlari, issiq davr ventilyatsiyasi parametrlari va konditsioner parametrlari va isitish davomiyligi parametrlari hisobga olingan. Issiqlik ikki konturli qozon orqali amalga oshiriladi, qozon gaz va elektr energiyasida ishlaydi, issiq suv ta’minoti ikki konturli qozon orqali amalga oshiriladi. Isitish tizimi ikki quvurli ichki ximoya qoplamali bimetal isitkichlardan iborat. Isitish uchun qo’llaniladigan quvur o’tkazgichlar polipropilenli va pulat q uvurlardan iborat. Isitish alyumin radiatorlar orqali amalga oshiriladi. Binoni shamollatish xavo berish va xavoni surish tabiiy va majburiy yo’l bilan bajariladi. Xavo oqimi deraza va eshiklar orqali amalga oshiriladi. Xavoni xonalardan surish ventilyator bilan amalga oshiriladi.

Ichimlik va oqova suv bo’limi: Ichimlik va yong’in xavfsizligi uchun suv pulat va polipropilen quvur bilan, bir joydan kirilib loyihalashtirilgan. Suvni bosim bilan uzatish uchun vakuum nasos qo’llanilgan. Issiq suv ta’minoti elektr isitish moslamasi bilan amalga oshirilgan. Ichki oqova suv tarmog’i uz oqimi bilan oquvchi shahar oqova suv tarmog’iga qo’yilishi Qashqadaryo viloyat “Suvoqova” boshqarmasi tomonidan berilgan texnik shartga asosan belgillangan. Oqova suv quvuri 50-100 mm plastmassa quvurdan foydalaniladi. Ichki yong’inga sarflanadigan suv sarfi 2,5 l/sek.

Ichki elektr tizimi bo’limi: Loyihalanadigan binoning ichki elektr tarmog’i, tarmoq ko’chlanishi 380/220 V. Elektr ta’minoti – III-toifa. O’rnatilgan quvvati – 255,0 kVt. Magistral tarmoq VRUdan transformatorgacha VVGng kabel orqali amalga oshiriladi. Binoga elektr energiyasini kiritish va taqsimlash SHE va UOSHV shitlari orqali amalga oshiriladi. Tarmoqning elektr quvvati 380/220 V ko’chlanishdagi tuproqli neytral bilan uch fazali turt simli sifatida qabul qilinadi. Istemol qilingan elektr energiyasini hisobga olish faol va reaktiv elektron hisoblagich orqali amalga oshiriladi. Elektron hisoblagich SHE-1, SHE-2, SHE-3 – SHE-6 da o’rnatilgan. Yoritish va maishiy jihozlarning elektr ta’minoti yoritish shitidan guruxlangan ajratilgan holda kerakli quvvatdagi avtomat uchirgichlar bilan jihozlangan. Binoni ichki yoritish chiroqlari zamonaviy turdagi “LED” lampalari bilan ta’minlangan.

4.2. Muhandislik tarmoqlari.

Issiqlik ta’minoti. Issiqlik o’zatuvchi sifatida ikki konturli qozon xizmat qiladi. Issiqlik magistral tizim orqali polipropilen va pulat quvurlar bilan olib kelinadi. Issiqlik tashuvchi T1=95 gr.C, T2=70 gr.C parametrli suv.

Tashqi ichimlik va oqova suv ta’minoti bo’limi: Toza ichimlik suv tarmog’i manbai “Qashqadaryo suv ta’minoti” AJ tomonidan berilgan texnik shart asosida bajariladi. Tashqi yong’inni uchirishda loyihalanadigan yong’inga qarshi xovuzdan foydalaniladi. Yong’inni uchirish uchun suvni junatish motopompa orqali amalga oshiriladi.

Tashqi elektr tarmoqlari bo’limi: Qarshi shahar, “Gulshan” MFY, “Nasaf” ko’chasi hududida loyihalashtiriladigan 5-qavatli uyning elektr ta’minoti “Qashqadaryo viloyati elektr ta’minoti” AJ tomonidan berilgan texnik shart asosida bajariladi. Binoning elektr ta’minoti loyihasi loyihaviy TP orqali amalga oshiriladi. Loyihaviy TP nimstantsiyasining RU-0,4V tomoniga kerakli quvvatdagi kommutatsion kabellar orqali elektr ta’minoti amalga oshirilgan.

Binoning tom qismida qo’shimcha elektr manbai bilan ta’minlash sifatida zamonaviy turdagi umumiy quvvatning 25-30% ta’minlab beruvchi quyosh panellari o’rnatilishi ko’zda tutilgan. H ududni tashqi yoritish zamonaviy turdagi quyosh panellari bilan jihozlangan “LED GARNER” chiroqlari o’rnatilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha (bosh reja, fasad va loyiha rejasi) Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi bosh boshqarmasi loyiha-smeta xujjatlarini kelishish bo’yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 25.09.2025-yil №215056098-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **33 841 607 584** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

33 841 607 583 so'mga kamaytirilib, **1** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **33 841 607 583** so'm

Asbob-uskunalar: **2 499 615 598** so'm

QQS: **3 625 886 527** so'm

6.1. Arxitektura-qurilish yechimi bo’yicha.

- Etirozlar ish jarayonida mavjud normativ xujjatlar asosida to’g’irlandi;
- ekspertiza ko’rigiga loyihaviy yechimlar izohsiz taqdim etilgan, izohlar kiritildi;
- loyiha-smeta tarkibiy qismini tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig’i qayta buyurtmachi bilan ko’rib chiqildi va qayta taqdim etildi;
- loyihani aniq maydonga bog’lash (privyazka) jarayonida iqlim va fizikaviy geologik ma’lumotlar, injenerlik geologiya zilzilabardoshlik, sanitariya, imkoniyati cheklanganlar uchun qo’layliklar va boshqa qoidalarga amal qilgan holda amalga oshirilishi lozim;
- inshoat qurilishida mualliflik nazorati o’rnatilsin.

6.2. Muhandislik qurilmalari va ta’minoti bo’yicha.

- Muxim etirozlar yo’q, loyiha mavjud normativ xujjatlar asosida bajarilgan.

6.3. Nogironligi bo’lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini ta’minlash uchun ishchi loyihasi.

- Ishchi loyiha “Qurilish ob’ektlarini nogironligi bo’lgan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” SHNQ 2.07.02-24 talablariga to’liq javob beradi. Qurilish jarayonida NBSH bo’lgan talablar normativ xujjatlar, na’munaviy loyihalar asosida bajarilishi buyurtmachi tomonidan ta’minlansin.

6.4. Smeta qismi bo’yicha.

Mutaxassis tasdiqlangan ishchi loyihaning smeta xujjatlarini ko’rib chiqdi. Xarajatlar darajasi tekshirildi, ish xaqi, mashina va mexanizmlar xarajati, asosiy qurilish materiallari SHNQ 4.02.00-05 normalariga muvofiq “Uslubiy tavsiyalar” va SHNQ 4.01.16-09 asosida amalga oshirilgan ob’ekt narxi amaldagi aniqlash hisob-kitob asosida ko’rib chiqildi.

Quruvchi-ishchilarning o’rtacha ish xaqi ijtimoiy sug’urta hisobga olgan holda 28 915,90 so’mni tashkil etadi, pudratchining boshqa xarajatlari 19,54% ni tashkil etadi. Qurilish materiallari va konstruksiyalarning narxlari “O’zbekiston Respublikasining qurilish sanoatida foydalanadigan moddiy-texnika resurslari uchun amaldagi narxlar katalogi bo’yicha mintaqadagi o’rtacha meyerlarni hisobga olgan holda tekshirildi.

Buyurtmachi tomonidan amaldagi narxlarda taqdim etilgan ob’ekt qurilishining umumiy qiymati QQS bilan va buyurtmachining xarajatisiz - 33 841 607,583 ming.so’m smeta qiymati tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan sung, nazorat o’ lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi loyiha-smeta xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgillangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Qarshi shahar «Gulshan” MFY, “Nasaf” ko’chasi, 298-uy hududidan 5-qavatli turar-joy binosini qurish, loyiha-smeta xujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalari hisobga olgan holda ko’rib chiqilib, qo’yidagi texnik-iqtisodiy ko’rsatgichlar bilan kelishish va tasdiqlashga tavsiya etiladi:

Qurilish xajmi jami	- 26231,4 m3
Umumiy maydoni	- 8200,0 m2
shundan: yerto’la maydoni	- 1368,0 m2
Qurilish maydoni	- 1478,0 m2
Quvvati	- 90-ta xonadon

Ob’ektning QQS bilan, buyurtmachining xarajatlarisiz joriy narxlardagi smeta qiymati	- 33 841 607,583 ming.so’m.
Qurilish ishchilarning mehnat vaqti	- 208 375,489 odam/soat.

7.2. Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar loyiha-smeta xujjatlari ekspertizasi MCHJ talablarini va ko’rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish loyihachiga yuklanadi. Inshoat qurilishida mualliflik nazorati o’rnatilsin.

7.3. Qurilish ishlarini amalga oshirish “Qashqadaryo viloyati qurilish nazorat inspektsiyasi” tomonidan berilgan ruxsatnoma asosida amalga oshirilsin.

7.4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qaroriga muvofiq 1-ilovasi, 3-bob, 29-bandiga asosan “Ekspertizaga taqdim etiladigan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarni xaqqoniyligini va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir”.

7.5. Ishchi loyiha O’zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi va uy-joy kommunal bosh boshqarmasi Qashqadaryo viloyati Davlat arxitektura-qurilish nazorat inspektsiyasidan ro’yxatdan o’tkazilsin.

Bosh mutaxassis: A. Sherqulov.

Ekspert mutaxassislar:
O. Murodov, E. Muratova, J. Toshqulov.